



JAMIYATNI IJTIMOY-IQTISODIY TARAQQIYOTINI TA'MINLASHDA IJTIMOY SOHANING O'RNINI KENGAYTIRISH MASALALARI

Dustmirzayev Farxod Bekmirzayevich

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi

Biznes va tadbirkorlik oliy maktabi

ORCID iD: 0009-0000-9576-3278

85fara19@gmail.com

Annotatsiya. *Ijtimoiy rivojlanish keng ko'lamli masalalar, xususan, qashshoqlikka barham berish, ish o'rinlarini yaratish, kooperatsiya, insonning qarish jarayoni, yoshlar, oila, ijtimoiy integratsiya, nogironlik va shu kabi samarali fuqarolik jamiyatini barpo etish bilan bog'liq masalalarni o'z ichiga qamrab oladi. Shundan kelib chiqqan holda, mazkur maqolada ijtimoiy sohalarni rivojlantirishni moliyalashtirish orqali jamiyat ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotini ta'minlash masalalari muhokama qilingan.*

Kalit so'zlar: *milliy iqtisodiyot, barqaror rivojlanish, farovonlik, inson kapitali, ijtimoiy soha, kambag'allik, aholi turmush darajasi, xizmatlar sohasi, aholi daromadlari.*

ВОПРОСЫ РАСШИРЕНИЯ РОЛИ СОЦИАЛЬНОЙ СФЕРЫ В ОБЕСПЕЧЕНИИ СОЦИАЛЬНО-ЭКОНОМИЧЕСКОГО РАЗВИТИЯ ОБЩЕСТВА

Дустмирзаев Фарход Бекмирзаевич

Высшая школа бизнеса и предпринимательства

при Кабинете Министров Республики Узбекистан

Аннотация. *Социальное развитие охватывает широкий спектр вопросов, особенно связанных с искоренением бедности, созданием рабочих мест, кооперацией, процессом старения человека, молодежью, семьей, социальной интеграцией, инвалидностью и т. д., а также построением эффективного гражданского общества. Исходя из этого, в данной статье обсуждались вопросы обеспечения социально-экономического развития общества путем финансирования развития социальных сфер.*

Ключевые слова: *национальная экономика, устойчивое развитие, благосостояние, человеческий капитал, социальная сфера, бедность, уровень жизни населения, сфера услуг, доходы населения.*

ISSUES OF EXPANDING THE ROLE OF SOCIAL SPHERE IN ENSURING THE SOCIO-ECONOMIC DEVELOPMENT OF SOCIETY

Dustmirzaev Farkhod Bekmirzaevich

Graduate School of Business and Entrepreneurship under

the Cabinet of Ministers of the Republic of Uzbekistan

Annotation. *Social development covers a wide range of issues, especially those related to poverty eradication, job creation, cooperation, the aging process, youth, family, social integration, disability, etc., as well as building an effective civil society. Based on this, the issues of ensuring the socio-economic development of society by financing the development of social spheres were discussed in this article.*

Keywords: *national economy, sustainable development, welfare, human capital, social sphere, poverty, the standard of living of the population, service sector, income of the population.*

Kirish.

Ijtimoiy rivojlanish jamiyatdagi har bir insonning o'z salohiyatini to'liq ishga solishi uchun uning farovonligini oshirishga qaratilganligi bilan ajralib turadi. Jamiyat faoliyatining samaradorligi ko'p jihatdan har bir fuqaroning farovonligi bilan bog'liq.

Ijtimoiy davlat modeli yuqori sifatli ta'lim, tibbiy yordam ko'rsatish, oilalar, bolalar, ayollar, keksa fuqarolar, nogironlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash, muhtojlarni uy-joy bilan ta'minlash, xavfsiz mehnat sharoitlarini yaratish va qashshoqlikni kamaytirishga qaratilgan (Briggs, 1961).

Bugungi kunda O'zbekistonni ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan rivojlantirishning muhim vazifalaridan biri, shubhasiz fuqarolarning huquq va erkinliklarini to'laqonli ta'minlash, fuqarolarning munosib hayot kechirishlari borasida qulay shart-sharoitlarni yaratib berish, jamiyatdagi ijtimoiy tengsizlikni kamaytirish, daromadlarni oshirish, kafolatlangan asosiy ijtimoiy xizmatlar sifatini oshirish va ulardan barchaning birdek foydalanishini ta'minlashdan iboratdir. Shundan kelib chiqqan holda, yangi tahrirda qabul qilingan Konstitutsiyada "O'zbekiston-ijtimoiy davlat" ekanligi alohida norma sifatida kiritildi. Shuningdek, Konstitutsiyada "Davlat fuqarolarning bandligini ta'minlash, ularni ishsizlikdan himoya qilish, shuningdek kambag'allikni qisqartirish choralari ko'rish, fuqarolarning kasbiy tayyorgarligini va qayta tayyorlanishini tashkil etadi hamda rag'batlantirishi" ga alohida urg'u berilgan.

"O'zbekiston-2030" strategiyasida 59- maqsad sifatida "hududlarda xizmatlar sohasini jadal rivojlantirish", 60-maqsad sifatida "hududlarni kompleks rivojlantirish, urbanizatsiya strategiyasini amalga oshirish, aholini arzon uy-joy bilan ta'minlash darajasini oshirish", 61-maqsad sifatida "infratuzilma loyihalarini barqaror va uzoq muddatli moliyalashtirish manbalari bilan ta'minlash" kabilarning ko'zda tutilishi mamlakatda ijtimoiy sohani rivojlantirishga katta e'tibor qaratilayotganligining dalil hisoblanadi.

Adabiyotlar sharhi.

Jamiyatni ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan rivojlantirishda ijtimoiy sohalarning o'rnini kengaytirish masalalari bugungi kunda ko'plab olim va tadqiqotchilarning diqqat markazida bo'lib kelmoqda. Bu o'z navbatida O'zbekistonda ijtimoiy davlatchilik kontseptsiyasining ilgari surilayotganligi va islohotlar markaziga inson omili qo'yilayotganligi bilan izohlanadi. Xususan, tadqiqotchilar Abduvoxidov va Kamilovalar (2023) jamiyatni ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan rivojlantirishda inson kapitali va uning raqamlashtirish sharoitidagi o'rniga alohida to'xtalib o'tadilar. Ularning fikricha, jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan taraqqiyoti ko'p jihatdan inson kapitaliga bog'liq bo'lgani holda, ijtimoiy sohalarni rivojlantirish ham o'z navbatida inson salohiyatini ro'yobga chiqarishga yo'naltirilishi lozim (Abduvoxidov, Kamilova, 2023).

Tadqiqotchi Yuldasheva va Ametovalar mahalliy byudjetlar daromadlari tarkibini barqarorlashtirish, to'lov intizomiga rioya etish, soliqlarning byudjet tizimi bo'g'inlari o'rtasida taqsimlanish mexanizmini takomillashtirish, soliqqa oid qonunbuzarliklarga barham berish va ularning oldini olish, iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida hamda ijtimoiy sohani rivojlantirishda mahalliy byudjet mablag'larini samarali boshqarishning asosiy yo'nalishlarini izlab topish kabilar dolzarb masalalardan biri ekanligini va aholi yashash sharoitini yaxshilash, ijtimoiy farovonligini oshirish, turar joy va kommunal xizmatlar bilan bog'liq xarajatlar hamda ijtimoiy sohani rivojlantirish mahalliy byudjetlar xarajatlarining asosiy yo'nalishini tashkil etishi lozimligini ta'kidlaydi (Yuldasheva, Ametova, 2019).

Rossiyalik tadqiqotchi Feklistova "...ko'p jihatdan, ijtimoiy soha rivojining orqada qolishi ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish borasida samarali davlat boshqaruvining mavjud emasligi, obyektiv sifat va miqdoriy baholash usullarining nomukammalligi va alohida tarkibiy qismlarning va umuman ijtimoiy sohaning ko'rsatkichlarini uzoq muddatli rejalashtirishning yo'qligi bilan bog'liq", deb ta'kidlaydi (Feklistova, 2016).

Yana bir mahalliy tadqiqotchi Mirzaeva o'z tadqiqotlarida ijtimoiy sohani rivojlantirish to'g'ridan-to'g'ri davlat byudjeti mablag'laridan samarali foydalanish bilan bog'liq ekanligini ta'kidlaydi, uning fikricha ijtimoiy sohani rivojlantirish ajratilayotgan byudjet mablag'larining miqdori bilan emas, balki o'z o'rnida va samarali ishlatilishi bilan chamyuarchas bog'liq (Mirzayeva, 2023).

Jamiyatni ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotini ta'minlashda ijtimoiy sohalarning o'rnini kengaytirish masalalariga bag'ishlangan tadqiqotlar ko'p bo'lishiga qaramay iqtisodiy taraqqiyot bu borada yangicha yondashuvlarni ishlab chiqishni talab qiladi.

Tadqiqot metodologiyasi.

Jamiyatni ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotini ta'minlashda ijtimoiy sohalarning o'rnini kengaytirish masalalariga bag'ishlangan mazkur tadqiqot ishsining maqsadidan kelib chiqqan holda, tadqiqotda analiz va sintez, induksiya va deduksiya, mantiqiylik, guruhlash va umumlashtirish kabi ilmiy bilish usullaridan foydalanilgan holda izlanishlar olib borildi.

Tahlil va natijalar muhokamasi.

Keyingi yillarda aholining hayot sifatini yaxshilash g'oyasi tobora jamoatchilik ongiga chuqur o'rnashish asnosida davlat va boshqaruv tuzilmalarining ham diqqat markazida bo'lib kelmoqda, bunda aholi farovonligi masalalariga e'tibor qaratishning ikkita, ya'ni ichki va tashqi sabablarini ajratib ko'rsatish mumkin bo'ladi.

Ichki sabablar, birinchi navbatda, hayot har bir inson va umuman jamiyat uchun asosiy qadriyat ekanligiga asoslanadi, shu bois insonlar doimo o'z hayotlarini yaxshilashga intiladilar. Demokratik jamiyatda ijtimoiy tafakkurning o'ziga xos jihati shundaki, har qanday ilg'orlikka intiluvchi hukumat doimiy ravishda aholi hayotini yaxshilash uchun sharoit yaratishi va uzov muddatli davrda bunday shart-sharoitlarni takomillashtirish borishga intilishi lozim.

Tashqi sabablar hayot sifati muammosini jamiyatdagi mavjud iqtisodiy va ijtimoiy hayot sharoitlari nuqtai nazaridan hal qilishning dolzarbligini belgilaydi.


So'nggi yillarda O'zbekistonning iqtisodiy rivojlanishidagi ba'zi yutuqlarga qaramay, aholi ayrim qatlamlarining farovonligi pastligicha qolmoqda. Xususan, Jahon Banki ma'lumotlariga ko'ra, "O'zbekistonda aholi daromadlari borasidagi tengsizlik jiddiylikicha qolmoqda, 2023 yilda mamlakatda daromadi yuqori bo'lgan 10 foiz aholining daromadlari kam ta'minlangan aholi qatlami daromadlariga nisbatan 5 baravar ko'proq o'sgan".

Xalqaro standartlarga ko'ra, so'nggi sakkiz yil ichida kambag'allik darajasi (kuniga \$6,85dan kam) ikki barobarga, ya'ni 2015-yildagi 36%dan 2022-yilda 17%ga qisqardi. Mamlakatda kambag'allik Evropa va Markaziy Osiyoning boshqa mamlakatlariga qaraganda tez sur'atlarda kamayib bormoqda – 13%dan 8%gacha. 2021-yilda tasdiqlangan milliy standartlarga ko'ra, kambag'allik darajasi 17%dan 11%ga kamaydi. Qishloq joylarda pasayish 8 foiz punktga, shaharlarda esa 4 foiz punktga etdi. Xususan, 1,6 mlnga yaqin aholi kambag'allikdan chiqarildi.

Bundan tashqari, Jahon banki hukumatning 2026-yilga qadar kambag'allikni ikki baravar kamaytirish maqsadiga erishish mumkinligini qayd etadi.

Kambag'allikni kamaytirishning asosiy omili daromadlarning o'sishi (60%) va ijtimoiy transfertlar bo'lib, ular optimallashtirildi va kengaytirildi.

Biroq, xalqaro moliya tashkiloti tengsizlik darajasining ortib borayotganini qayd etadi, bu esa kambag'allikni qisqartirish sur'atini sekinlashtiradi. Daromadlarning o'sishi asosan aholining eng boy qatlamlari orasida shakllangan. 2023-yilda Jini koeffitsienti (Gini Coefficient) 0,31dan 0,35gacha ko'tarildi (1-rasm). Natijada kambag'allik darajasi 5,5 foiz punktga emas, balki 3,1 foiz punktga kamaydi. Masalan, 10% eng kambag'al aholi daromadlari atigi 6%ga o'sgan bo'lsa, 10% eng boy aholiniki 30%dan ko'proqqa o'sdi.



1-rasm. Aholi daromadlarining notekis taqsimlanishi (Jini koeffitsienti)

Manba: O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi ma'lumotlari asosida tuzilgan.

Xususan, badavlat fuqarolar boyligining yuqori o'sish sur'atlari iqtisodiy tengsizlik muammosini yanada kuchaytiradi.

Jahon banki hukumatga aholining kam ta'minlangan qatlamlari mehnat unumdorligini oshirishni tavsiya qiladi. Xususan, kam ta'minlangan fuqarolarning ish imkoniyatlari kamroq, ta'lim darajasi past va qaramog'idagilar ko'proq. Bu jihatlardagi tafovutni tugatish O'zbekistonda kambag'allikni kamaytirish va o'sib borayotgan tengsizlikni cheklashga yordam beradi.

Ijtimoiy soha aholining turmush sifati ko'rsatkichlarini shakllantirishga katta ta'sir ko'rsatadi. U sog'liqni saqlash, jismoniy tarbiya va sport, ta'lim, madaniyat, ijtimoiy yordam va ijtimoiy ta'minot, uy-joy kommunal xo'jaligi, ijtimoiy sug'urta va pensiya ta'minoti kabi sohalarni qamrab oladi. Ular quyidagi umumiy xususiyatlar bilan tavsiflanadi:


- mazkur tarmoqlar tomonidan asosan xizmatlar ko'rinishida taqdim qilinuvchi ne'matlar insonlarning kundalik hayot kechirishini ta'minlashga yo'naltirilganligi bilan ajralib turadi;
- taqdim etiluvchi ne'matlar yetarlicha tashqi samara ko'lamiga ega bo'ladi;
- ushbu tarmoqlarning faoliyati qiymat baholashlarni amalda tizimli qo'llash obyekti hisoblanadi.

Ijtimoiy soha tarmoqlari o'zining aniq manzilga yo'naltirilganligi bilan ajralib turgani holda, ular inson kapitalini boyitish, insonlarning moddiy, jismoniy va ma'naviy imkoniyatlarini yaxshilashga xizmat qiladi. Sog'liqni saqlash kasalliklarning oldini olish va davolash bilan shug'ullansa, jismoniy tarbiya va sport insonlarning salomatligini mustahkamlashga va sport musobaqalari va tadbirlari esa, ishtirokchi va tomoshabinlarning ijobiy hissiyotlarini boyitishga hissa qo'shadi. Ta'lim odamlarning bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishini ta'minlaydi; madaniyat va san'at tashkilotlari va ommaviy axborot vositalari faoliyati odamlarga ijobiy estetik taassurotlar va bilimlarni beradi. Ijtimoiy xizmatlar yoshi, nogironligi, kasalliklari va boshpanasini yo'qotishi sababli tashqi yordamga muhtoj odamlarning kundalik ehtiyojlarini qondirishga xizmat qiladi. Uy-joy kommunal xo'jaligi odamlarning kundalik hayotining moddiy sharoitlari (suv ta'minoti, isitish, yoritish va boshqalar)ni takror ishlab chiqarishni ta'minlaydigan uy-joylarga texnik xizmat ko'rsatishni ta'minlaydi. Ijtimoiy sug'urta, ijtimoiy nafaqalar va pensiya ta'minoti vaqtincha nogironlik, ishlab chiqarishda olingan jarohati, qarilik va boshqalar tufayli daromadlarini yo'qotgan odamlarning moddiy imkoniyatlarini ma'lum darajada ushlab turishni o'z oldiga maqsad qilib qo'yadi.

Ijtimoiy soha tarmoqlari ular tomonidan ishlab chiqarilgan tovarlarni to'g'ridan-to'g'ri murojaat qilganlar tomonidan iste'mol qilinishida yaqqol aks etuvchi tashqi ta'sirlarning mavjudligi bilan tavsiflanadi. Kasalliklarning oldini olish va kasallarga tibbiy yordam nafaqat ushbu xizmatlarni oladiganlarga, balki boshqalarga ham ijobiy ta'sir ko'rsatib, aholining kasallanish ehtimoli va xavfini kamaytiradi. Yalpi savodxonlik butun jamiyat faoliyatiga va iqtisodiyotning rivojlanishiga katta ta'sir ko'rsatadi. Madaniy faoliyat odamlar tomonidan ijtimoiy qadriyatlarni tarqatish va o'zlashtirish, jamiyatni mustahkamlashga yordam beradi. Ijtimoiy ta'minot va ijtimoiy xizmat jamiyatning eng kambag'al qatlamlariga yordam ko'rsatish orqali ularning ushbu jamiyatdagi yashash sharoitlaridan ma'lum darajada qoniqishini ta'minlaydi va ularning anti-ijtimoiy xatti-harakatlari xavfini kamaytiradi (jinoiy faoliyatda ishtirok etish, ommaviy tartibsizliklarda qatnashish va shu kabilar).

Ijtimoiy soha tarmoqlari doimiy ravishda davlat va jamiyat tomonidan qadriyatlarni baholash obyekti hisoblanadi. Masalan, aholining turli ijtimoiy guruhlari tomonidan tibbiy yordam va ta'lim olish imkoniyatlari har qanday zamonaviy jamiyatda ijtimoiy adolat nuqtai nazaridan jamiyatga baho berish dastgi hisoblanib kelgan. Xalqaro tashkilotlar va ko'plab mamlakatlarning Konstitutsiyalari tibbiy yordam, ta'lim va madaniy ne'matlarni inson huquqlarining ajralmas qismi sifatida e'tirof etadi. Jumladan, O'zbekiston Konstitutsiyasida ham "Har kim uy-joyli bo'lish" (47-modda), "Har kim sog'lig'ini saqlash va malakali tibbiy xizmatdan foydalanish" (48-modda), "Har kim qulay atrof-muhitga, uning holati to'g'risidagi ishonchli axborotga ega bo'lish" (49-modda), "Har kim ta'lim olish huquqi" (50-modda)ga ega ekanligi mustahkamlab qo'yilgan.

Iqtisodiyotda ijtimoiy tarmoqlarga xos jihatlarning u yoki bunisiga ega bo'lgan boshqa tarmoqlar ham mavjud. Masalan, maishiy xizmatlarning ayrim turlari birinchi mezonga javob bersada (xususan, sartaroshxona, hammom va boshqalar), lekin boshqa mezonlarga javob bermaydi. Biroq, ushbu uchta xususiyatning kombinatsiyasi va ularning aniq ifodasi "ijtimoiy soha" tushunchasi ostida birlashtirilgan tarmoqlar guruhiga xosdir. Faqatgina jamoat yo'lovchi transporti bu xususiyatlarning barchasini o'zida mujassamlashtirsada, ikkinchi va uchinchi mezonlar bir muncha sust namoyon bo'ladi.




2-rasm. 2008-2024 yillarda ijtimoiy soha va aholini ijtimoiy qo'llab-quvvatlash xarajatlarining real o'sish sur'atlari, %

Manba: O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi ma'lumotlari asosida tuzilgan.

Ijtimoiy sohaning o'ziga xos xususiyati moliyalashtirish va unda yaratilgan ne'matlarni bevosita ta'minlashda davlat ishtirokining yuqori ulushida namoyon bo'ladi. Shu bilan bir qatorda, iqtisodiy rivojlanish asnosida ijtimoiy sohaga yo'naltiriluvchi davlat xarajatlarining YaIMdagi ulushi ham ortib boradi.

O'zbekistonda ijtimoiy soha va aholini ijtimoiy qo'llab-quvvatlash xarajatlarining real o'sish sur'ati 2-rasmda ko'rsatilganidek, V shaklidagi ko'rinishga ega. Xarajatlarning maksimal pasayishi va ularni tiklashning boshlanishi 2015 yilda kuzatildi, unda ular butun davr uchun eng past ko'rsatkich, 2% ni tashkil qildi. Keyingi ikki yil ichida 2016-yilda 3%, 2017-yilda 6%ga etdi. 2018 yildan boshlab bu borada keskin o'sish kuzatila boshladi. Bunday o'sish mamlakat hukumati tomonidan ijtimoiy sohani qo'llab-quvvatlashga etarlicha e'tibor qaratilishining natijasi hisoblanadi (2-rasm).

Agar 2018 yilda O'zbekistonda ijtimoiy siyosat bo'yicha chora-tadbirlarni moliyalashtirish uchun 35 trln. so'm mablag' yo'naltirilgan bo'lsa, 2023 yilda bu ko'rsatkich 129 trln. so'mdan, 2024 yilda esa 150 trln. so'mdan oshdi, bu barcha rejalashtirilgan byudjet xarajatlarining deyarli 50 foizini tashkil etadi. Keyingi yillarda ham ijtimoiy soha xarajatlarni oshirib borish ko'zda tutilgan, xususan, 2027 yilgacha bo'lgan muddatda davlat byudjetidan ajratilayotgan ijtimoiy xarajatlarni 225 trln.so'mgacha oshirish ko'zda tutilgan (3-rasm).



3-rasm. 2024-2027 yillarda ijtimoiy soha harajatlarining o'zgarishi, trln.so'm

Manba: O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi ma'lumotlari

Rivojlanayotgan mamlakatlarda davlat mablag'larini ijtimoiy sohaga sarflash tajribasi borasida ko'p sonli tadqiqotlar mavjud. Masalan, Sh. Fan, P. Xezel va S. Toratning "Hindistonning qishloq hududlarida davlat xarajatlari, iqtisodiy o'sish va qashshoqlik o'rtasidagi bog'liqlik" nomli maqolasida keltirilishicha, 1970 yildan 1993 yilgacha bo'lgan oraliqda ta'limga sarflangan har bir qo'shimcha 1 million rupiy (1993 yil kursi bo'yicha 23,2 ming AQSh dollari) 32 ta kambag'alni kamabag'allik chegarasidan chiqarish imkonini bergan (Fan, 2000). Sh. Fan, L. Chjan va D. Chjanlarning "Xitoyning qishloq joylarida o'sish, tengsizlik va qashshoqlik: davlat investitsiyalarining o'rni" nomli tadqiqotida keltirilishicha, 1970-2000 yillarda ta'limga davlat xarajatlari qishloqlarda kambag'allik va hududlar o'rtasidagi tengsizlikni kamaytirishga, shuningdek ishlab chiqarishning o'sishiga katta ta'sir ko'rsatgan. Xususan, qo'shimcha 10000 yuan (2000 yil kursi bo'yicha 1,2 ming AQSh dollari) kambag'allik chegarasidan o'rtacha 12 ta odamni olib chiqish imkonini bergan (Fan, Zhang L, Zhang, 2002).

Ushbu holatda, ijtimoiy soha, xususan, ta'limga yo'naltirilayotgan davlat byudjeti mablag'laridan foydalanish samaradorligini qay tarzda baholash lozimligi to'g'risidagi masalaga echim topish talab etiladi.

Samaradorlik masalasiga echim topish uchun sog'liqni saqlash misolida urinib ko'ramiz. Iqtisodiy adabiyotlarda davlat xarajatlarining sog'liqni saqlash, inson salomatligi holatiga ta'siri borasida ikki yoqlama qarash mavjud. Birinchisi, odamlarning sog'lig'i yaxshilanishi asnosida tabiiy ravishda kutiladigan ijobiy ta'sir bo'lsa, ikkinchisi, o'zaro bog'liqlik tasdiqlanmagan holatlar hisoblanadi. D. Filmer va L. Pritchettlarning "Davlat xarajatlarining salomatlikka ta'siri: pul qanchalik muhim?" nomli tadqiqotlarida davlat xarajatlarining aholi salomatligi va bolalar o'limiga ta'siri statistik jihatdan ahamiyatsiz ekanligini aniqladilar va buni uchta holat bilan izohlashga harakat qildilar (Filmer, Pritchett, 1999).

Birinchidan, salomatlik holatidagi o'zgarishlarga, birinchi navbatda, turli xil tibbiy xizmatlarni iste'mol qilishdagi o'zgarishlar ta'sir qiladi, ularning ba'zilar samaraliroq, boshqalari esa salomatlikni yaxshilash uchun samarasiz. Ikkinchidan, qo'shimcha maxsus xizmat salomatlikni yaxshilash uchun samarali bo'lsa ham, bu "davlat" xarajatlari bir xil ta'sirga ega bo'ladi degani emas, chunki davlat sektoridagi qo'shimcha iste'mol xususiy sektorda iste'mol qilinadigan xizmatlarni siqib chiqarishi mumkin. Ya'ni, ba'zi mamlakatlarda sog'liqni saqlash uchun davlat sektoriga sarflangan 1 dollar sog'liqni saqlashni yaxshilash uchun samarali bo'lgan muassasalar va xizmatlarni yaratadi, boshqa mamlakatlarda esa hech qanday xizmat yaratmaydi. Bu holat davlat mablag'lari hisobiga yaratiluvchi xizmatlar samaradorligi bilan bog'liqdir.

Ta'kidlash joizki, davlat mablag'larini sarflash samaradorligi hukumatning iqtisodiy faoliyatini maksimal darajada oshirish va xarajatlarini minimallashtirish qobiliyati sifatida belgilanadi. Rivojlanayotgan mamlakatlar institutlarning etarli darajada rivojlan-maganligi sababli rivojlangan mamlakatlar bilan taqqoslaganda samarasizlik muammolariga ko'proq duch kelishadi. Shuning uchun ham davlat xarajatlarining yanada shaffof va samarali amaliyoti aksariyat rivojlanayotgan mamlakatlarning kun tartibida bo'lib, bu shubhasiz mamlakatning iqtisodiy rivojlanishi va barqarorligida muhim rol o'ynaydi.

Davlat xarajatlarining bunday o'sishining ijtimoiy sohaga ta'sirini baholash maqsadga muvofiqdir. Kambag'allar to'g'risidagi ma'lumotlarning etishmasligi tufayli davlat xarajatlarining qashshoqlikka ta'sirini bevosita baholash qiyin. Biroq, boshqa turli xil indikativ ma'lumotlarning mavjudligi ushbu sohadagi davlat xarajatlarining samaradorligi va natijadorligini bilvosita baholashga imkon beradi.

2016-2023 yillar oralig'ida maktabgacha ta'lim tashkilotlarining soni qariyb 7 marta o'sdi, maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ishlovchi pedagoglar soni tahlil qilinayotgan davrda 60 ming nafardan qariyb 168 ming nafarga etdi. Bugungi kunga kelib maktabgacha ta'lim bilan qamrov darajasi 72 foizgacha o'sdi.

Keyingi yillarda umumta'lim muassasalarining soni ham o'sish tendentsiyasiga ega bo'lgani holda, O'zbekistonda 10750 ta umum ta'lim muassasasi faoliyat ko'rsatmoqda, shu bilan bir qatorda, oliy ta'lim tashkilotlari soni 219 taga yetib, qamroq darajasi 42 foizlik ko'rsatkichdan oshdi.

Sog'liqni saqlash sohasida ham keyingi yillarda ijobiy o'zgarishlar ko'zga tashlanmoqda. Kasalxonalaridagi o'rinlar soni 174500 tani tashkil qilmoqda. Bolalar o'limi koeffitsienti 2017 yilda har 1000 ta tug'ilishga 11,5 tani tashkil qilgan bo'lsa, 2023 yilga kelib 8,1 tagacha pasaydi, shu bilan bir qatorda, bolalar o'limi 15,4 dan 12,4 gacha qisqargan. Umr ko'rish davomiyligi 2017 yildagi 73,7 yoshdan 2023 yilda 74,7 yoshgacha uzaydi.

Xulosa va takliflar.

Ijtimoiy soha samaradorligini oshirish, O'zbekistonda aholi farovonligini yaxshilash borasida quyidagi yo'nalishlarda ishlarni davom ettirish o'rinli hisoblanadi:

Birinchisi – xususiy sektor va tadbirkorlikni rivojlantirish. Biznes yuritish sharoitlarining yaxshilanishi tufayli 2017 yildan buyon faoliyat yuritayotgan korxonalar soni 2,1 baravarga ko'payib, qariyb 600 mingtaga etdi. 155 ta korxonaning yillik aylanmasi 100 mln dollardan oshdi. Kiritilgan xorijiy investitsiyalar hajmi ilk bor 10 mlrd dollarga etdi. Bu 2017 yilga nisbatan uch baravar ko'pdir. Hozirgi vaqtda olib borilayotgan siyosatda biznesni manzilli qo'llab-quvvatlashga o'tish yuz berayotgan bo'lib, bunda uning xususiyatlari va hududiy faoliyat sharoitlari inobatga olinmoqda.

Shu tufayli, uch yil ichida aholi umumiy daromadlari tarkibida ish haqi ulushining kamayishi va kichik biznesdan olinadigan daromadlar ulushining oshishi kuzatildi. Xususan, 2021 yilda ish haqi bo'yicha daromadlar 70,2 foizni, kichik biznesdan esa 0,7 foizni tashkil etgan bo'lsa, 2023 yil oxiriga kelib bu ko'rsatkich mos ravishda 62,7% va 2,9 foizga teng bo'ldi.

Ikkinchi yo'nalish – yangi ish o'rinlari yaratish. O'zbekistonda mehnat bozoridagi vaziyat etarlicha barqaror qolmoqda. O'zbekiston Markaziy bankining sharhiga ko'ra, 2022 yil yakuni bo'yicha 13,7 mln kishi ish bilan ta'minlangan, bu 2016 yilga nisbatan 3 foizga yoki 400 ming kishiga ko'pdir. 2022 yilda mehnat organlariga ariza topshirgan ishsizlar soni 2021 yilga nisbatan 2 baravar kam bo'ldi. 2023 yilning yakunlariga ko'ra, ishsizlik darajasi 8,1 foizgacha pasaygan.

Farovonlikni oshirishning **uchinchi jihati** ijtimoiy himoya tizimini mustahkamlash hisoblanadi. O'tgan yili Ijtimoiy himoya milliy agentligi tashkil etildi. Shaffoflikning ortishi va aholi ehtiyojlarini manzilli o'rganish yordam oluvchilar ro'yxatini qayta ko'rib chiqish, 2 ming nafar yolg'iz va parvarishga muhtoj kishilarni qo'llab-quvvatlashni tashkil etish imkonini berdi. Ko'rsatilayotgan ijtimoiy xizmatlar ko'lami 250 turga kengaytirildi.

O'zbekistonda ijtimoiy yordam olayotgan kam ta'minlangan oilalar soni 2017 yildagi 500 mingdan 2023 yilda 2,3 mln nafarga oshdi. Ajratilayotgan mablag'lar hajmi yiliga 7 baravar – 11 trln so'mgacha oshdi.

To'rtinchi yo'nalish – farovonlikni oshirish va kambag'allik darajasini kamaytirishning muhim omili sifatida ta'lim sifati va undan foydalanish imkoniyatini oshirish. Sezilarli yutuqlarga qaramay, ta'lim sifatiga ta'sir ko'rsatuvchi o'qitish uslublari va standartlari hali ham takomillashtirishga muhtoj.

Farovonlikni oshirishning **beshinchii yo'nalishi** – sog'liqni saqlash va tibbiy xizmatlardan, shu jumladan, kam ta'minlanganlar uchun foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish. 6 yil davomida sog'liqni saqlash sohasida xizmatlar hajmi 2,1 baravarga – 1,7 trln so'mdan (136 mln dollar) 6,4 trln so'mga (513 mln dollar) oshdi. Onalar o'limi darajasi qariyb 34 foizga, 5 yoshgacha bo'lgan bolalar o'limi 26 foizga kamaydi. Bugungi kunda tibbiyot muassasalarini 100% raqamlashtirishga erishish va moliyalashtirishni ikki baravar oshirish sog'liqni saqlash sektorini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishi hisoblanadi.

Farovonlik darajasiga ta'sir qiluvchi oltinchi muhim omil – bu ekologiya. Ushbu yo'nalishda 2018-2022 yillar davrida O'zbekiston Natural Resources & Resilience rankings (GFSI) indeksida "Tabiiy resurslar va barqarorlik" toifasi bo'yicha eng katta yutuqqa erishdi va 17 pog'onaga ko'tarilib, dunyoning 113 davlati orasida 38-o'rinni egalladi. 2018-2022 yillarda Atrof-muhitning holati to'g'risidagi milliy ma'ruzaga ko'ra, qishloq xo'jaligi erlari maydoni oshdi, suvni tejaydigan sug'orish texnologiyalari irrigatsiya infratuzilmasining 23 foizini qamrab oldi. 2017-2022 yillarda tabiatni muhofaza qilish, dam olish va sog'lomlashtirish uchun mo'ljallangan er maydonlari qariyb 10 baravar ko'paydi.

O'zbekistonning ijtimoiy siyosati davlatning kelajakdagi taraqqiyotini ta'minlashga qodir yosh avlodni barkamol etib tarbiyalashga qaratilgan. Shu bilan birga, ijtimoiy siyosatning maqsadi barcha ijtimoiy guruhlarning o'zini o'zi anglashi uchun sharoit yaratishdir. O'zbekistonda ijtimoiy adolatni mustahkamlash aholi turmush darajasi va sifatini oshirishni kafolatlaydi.

Xususan, yuqorida aytilganlarning barchasiga asoslanib, farovonlikni oshirish va qashshoqlikka qarshi kurashda davlatning o'rni juda yuqori degan xulosaga kelish mumkin.

So'nggi yillarda ijtimoiy ta'minotga davlat xarajatlari bir necha bor oshdi. Davlat xarajatlarining samaradorligi va natijadorligini to'liq baholash yuqoridagi ma'lumotlarning etarli va ishonchli vaqt oralig'ini talab qiladi. Shunga qaramay, ijtimoiy soha ko'rsatkichlarini o'rganish aholining turmush sharoitini yaxshilash yo'nalishida sezilarli o'zgarishlarni ko'rsatmoqda.

Ta'kidlash joizki, yangi O'zbekistonning ijtimoiy siyosati yo'nalishi allaqachon belgilab olingan va uni amalga oshirish uchun barcha resurslardan foydalanilmoqda. Shu bilan birga, jamiyatning qoniqish darajasiga asoslanishi kerak bo'lgan ijtimoiy sohadagi xarajatlar samaradorligini yanada oshirish muhim jihatlardan biri bo'lib qoladi.

Adabiyotlar/ Лумепамыпа/ Reference:

Abduvoxidov A., Kamilova S. (2023) *Inson kapitali va iqtisodiyotning innovatsion rivojlanishini tadqiq etishdagi yondashuvlar //Iqtisodiy taraqqiyot va tahlil. –T. 1. – №. 4. – C. 12-21.*

Abduvoxidov A., Kamilova S. (2023) *INSON KAPITALINING RAQAMLI RIVOJLANISHINI BAHOLASH //Iqtisodiy taraqqiyot va tahlil. – T. 1. – №. 2. – C. 5-14.*

Briggs A. (1961) *The welfare state in historical perspective //European Journal of Sociology/Archives europeennes de sociologie. – T. 2. – №. 2. – C. 221-258.*

Fan S., Hazell P., Thorat S. (2000) *Government spending, growth and poverty in rural India //American journal of agricultural economics. – T. 82. – №. 4. – C. 1038-1051.*

Fan S., Zhang L., Zhang X. (2002) *Growth, inequality, and poverty in rural China: The role of public investments. – Intl Food Policy Res Inst, – T. 125.*

Filmer D., Pritchett L. (1999) *The impact of public spending on health: does money matter? //Social science & medicine. – T. 49. – №. 10. – C. 1309-1323.*

Kyryliuk V., Ryabokon I. (2021) *Role of social sphere in ensuring quality of working life //VUZF review. – T. 6. – №. 3. – C. 66.*

Lii D. T. (1998) *Social spheres and public life: A structural origin //Theory, Culture & Society. – T. 15. – №. 2. – C. 115-135.*

NODIROVNA M.S. (2023) *THE IMPORTANCE OF INVESTING IN THE DEVELOPMENT OF THE SOCIAL SPHERE IN OUR COUNTRY //Central Asian Journal of Innovations on Tourism Management and Finance. – T. 4. – №. 6. – C. 153-160.*

Феклистова И.С. (2016) *Совершенствование государственного управления развитием социальной сферы //ББК 65.290-2я43+ 67.401 я43 С 56. – C. 122.*

Юлдашева Нодира Викторовна, Аметова Фотима Розматовна (2019) *Ижтимоий соҳа тараққиётида маҳаллий бюджетларнинг аҳамияти // Экономика и финансы (Узбекистан). №3.*